

468632116

II-chorak 0 mingkub.m, aprcl 0 may 0 iyun 0
II-chorak 0 mingkub.m, iyul 0 avgust 0 sentyabr 0
IV-chorak 0 mingkub.m, oktyabr 0 noyabr 0 dekabr 0

15. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani takdim etmаса, yetkazib beruvchi tomonidan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanadi.

1.6. yetkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan xajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi mumkin. Iste'molchi tomonidan navbadagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

II. GAZNI YETKAZIB BERISH SHARTLARI

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) muddatlarda va hajmlarda hamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq tarzda tabiiy gazni yetkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi yetkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan joriy oy uchun gaz iste'molining sutkalik me'yori doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oy oxirida tuzilgan gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. yetkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz yetkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgariganligi to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

yetkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari: 66.414.31.70

Iste'molchi manzili va telefon raqami: M.Ulug'bek MFY A.Navoiy ko'chasi 5-uy.

2.4. yetkazib beruvchi Iste'molchini gaz yetkazib berish qisqartirilishiga qadar kamida 24 soat avval bu haqida xabardor qilishi shart, magistral gaz quvurlarida yuz bergan avariya holatlari bundan mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan keyin gaz yetkazib berish darhol qisqartiriladi yoki to'xtatiladi.

2.5. Magistral va taqsimlovchi gaz quvurlarining texnologik ish rejimlari buzilganda, shuningdek, kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha ob'ektlarini va aholi istemolchilarini bir maromda tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida yetkazib beruvchi Iste'molchini ogohlantirgan holda gaz yetkazib berishni cheklash yoki huquqiga ega, Iste'molchi esa xazira yoqilg'i uridan foydalanishga o'tadi.

2.6. Iste'molchi yetkazib beruvchi bilan gaz yetkazib berish-qabul qilish doirasida tekzor ma'lumotlarni muntazam almashishni ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7. Iste'molchi xazira yoqilg'i turidan foydalanishni ko'zda tutishi va uni yetarli miqdorda (3 oydan kam bo'lmagan muddatda) shakllantirishi shart. Iste'molchi yetkazib beruvchining asoslangan talabi bilan tabiiy gazdan foydalanish koidalariga muvofiq xazira yoqilg'iga o'tishi va gazdan foydalanishni to'xtatishi lozim. Gaz yetkazib berishning to'xtatilishi tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga yetkazib berish va qabul qilish

SHARTNOMASI

2022 yil «18» Yanvar 4-son Kattaqo'rg'on tuman (shartnoma tuzilgan joy)

Nizom asosida faoliyat yurituvchi Kattaqo'rg'on tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi (keyingi o'rnlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbari v.v.b. M.Izatillayev bir tomondan hamda Nizom va 20__ yil «__» __ da berilgan __-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi « HUDUDGAZ SAMARQAND gaz ta'minot filiali » (gaz ta'minoti tashkiloti nomi) (keyingi o'rnlarda "yetkazib beruvchi" deb ataladi), rahbari A.O.Muxammatiev ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. yetkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyinlarda o'rnlarda gaz deb ataladi) yetkazib berish majburiyatini oladi, Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga oshiradi.

1.2. yetkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyihasiga muvofiq, gazdan foydalanish uchun standartlashirilgan va sertifikatga ega gaz kurtimlari, shuningdek, elektron gazni hisoblash priborlari (keyingi o'rnlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda yetkazib beradi.

1.3. Iste'molchi yetkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga (Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarining 6-bandiga asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat) nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan ehtiyojni taqdim etadi.

Iste'molchi joriy yilning 15-iyul kuniga qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmin qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha yetkazib beriladigan hajmi texnik shartlarda belgilangan bosin va hajmda 2022 yilda 128 787 kub.m, narxi 660 ming so'mni tashkil qiladi, jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

I-chorak 128 787 ming kub.m, yanvar 53030 fevral, 53030 mart 22727

II-chorak 0 mingkub.m, aprcl 0 may, 0 iyun, 0

III-chorak 0 mingkub.m, iyul 0 avgust, 0 sentyabr, 0

IV-chorak 0 mingkub.m, oktyabr 0 noyabr, 0 dekabr, 0

yetkazib beruvchi tomonidan xizmatlarni to'lik hajmda ko'rsatish uchun magistral va gaz taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chikkan taqdirda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilarga 20__ yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi 128 787 ming kub metrni, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagini tashkil qiladi:

I-chorak 128 787 ming kub.m, yanvar 53030 fevral, 53030 mart 22727

Газ о'лчаш приборлари ва/ёки о'лчов комплексларининг қийослов ко'ридан ва/ёки метрологик аттестатсиясидан о'тish davrini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Газ о'лчаш приборлари ва/ёки о'лчов комплекслари egasi gaz о'лчаш приборларини қийослов ко'ригидан o'tkazish va/ёки o'лчов komplekslarini va uning tarkibiy qismlarini "O'zstandart" agentligida metrologik attestatsiyadan o'tkazishning o'z vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir.

3.10. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalitrlash, torayish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/ёки o'lchov kompleksining qismlarini yechish va o'rnatish texnik va/ёки ishlab chiqarish xizmatlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Газ о'лчаш приборларини ва/ёки о'лчов kompleksining qismlarini yechish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va Qoidalariga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

3.11. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalitrlash, toraytirish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/ёки o'lchov kompleksining qismlarini yechish va o'rnatish texnik va/ёки ishlab chiqarish xizmatlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi. Gaz o'lchash priborlarini va/ёки o'lchov kompleksining qismlarini yechish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

yetkazib beruvchining vakilini gaz o'lchash priborlari va/ёки o'lchov kompleksining egasi chaqiradi.

3.12. Gaz o'lchash priborlari va/ёки o'lchov komplekslari modernizatsiya qilish, gaz o'lchash priborlarini almashtirish, gazni o'lchashning boshqa usullarini tanlash masallari yetkazib beruvchi bilan kelishiladi.

3.13. Gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitdagi zichlik, azot va karbonat angidrid) gaz o'lchash priborining konfiguratsiyasiga kiritiladi.

Газ о'лчаш priborining egasi gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida gaz o'lchash priborini konfiguratsiyasiga kiritishni ta'minlaydi. yetkazib beruvchi iste'molchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida yetkazib berilishini ta'minlaydi.

3.14. yetkazib beruvchi o'zining tang'alarini gaz o'lchash priborlariga va/ёки o'lchash kompleksining gaz hajmini o'lchashga ta'sir qiladigan qismlariga iste'molchi ishtirokida o'rnatadi va tegishli dalolatnoma tuziladi. O'rnatilgan tang'alarini butiliga iste'molchi javobgardir.

3.15. yetkazib beruvchi iste'molchining gaz o'lchash priborlari va/ёки o'lchov komplekslari va ularning tarkibiy qismlarining to'g'ri ishlashini kuzatish xaqiga Shu bilan birga, Iste'molchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yetkazib beruvchi vakillarining o'lchash priborlari va/ёки o'lchash komplekslariga to'siqsiz kiritishini ta'minlaydi.

3.16. O'z DSt 8.586. (1-5)-2005 bo'yicha o'lchov kompleks va o'lchash priborlari ishida g'ayritabiiy holatlar yuzaga kelgan taqdirda o'zDSt 8.064:2017 bo'yicha gazning miqdori hisoblanadi (korrektirovka). O'lchash qurilmasi va (yoki o'lchash kompleks faoliyatiga ruxsatis aralashish holatlar bundan mustasno.

3.17. Olingan gaz uchun hisob-kitob, quyidagi hollarda tang'alanmagan gazdan foydalanish uskunasi 24 soat davomida ishlab turishi hisob-kitobidan amalga oshiriladi:

a) gazni hisobga olmagan holda gaz iste'moli - gazni hisoblash pribori va gazni sarf qilish normasi bo'lmaganda, gazni hisoblash priborini chetlab o'tgan xolda iste'mol qilish (noqonuniy

2.8. Iste'molchi o'ziga tegishli bo'lgan gaz tarmoqlari va ularda o'rnatilgan uskunalar, GTP (gaz taqsimlash punkti), gazdan foydalanish uskunalaridan soz holda foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish hamda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

2.9. Iste'molchining qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalarini o'rnatilishi, rekonstruksiya qilinishi yoki ta'mirlanishi oqibatida gaz sarflash hajmi o'zgarishiga olib kelgan hollarda, Iste'molchi yetkazib beruvchidan qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalarini o'rnatish yoki rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10. Iste'molchi ki yetkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgaragan holatlarda ular zudlik bilan bir-birini bu haqida xabardor qilishi shart.

2.11. Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish rejimining yagona uzluksiz texnologik jarayonini hisobga olib, tabiiy gazni ishlab chiqaruvchi yetkazib beruvchining talablarini bajarish Iste'molchilar uchun majburiy hisoblanadi.

III. YETKAZIB BERILGAN GAZNI HISOBGA OLISHNI TASHKIL ETISH

3.1. Gazni hisobga olmasdan yetkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.

3.2. yetkazib berilgan gaz miqdori gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan hisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki o'lchash kompleksi bo'yicha aniqlanadi hamda har ikki tomon imzolaydigan gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasi (Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmog'ining boshlanishi hisoblanib) yetkazib beruvchi va iste'molchi o'rtasidagi tegishligi bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'i bo'linishi nuqtasi hisoblanadi va unda hisoblash priborlari o'rnatilishi shart.

3.3. Birlik miqdori standart sharoitda 1 m³ gaz olinadi: xarorat 20° S, bosim 101,325 kPa (760 mmHg) (GOST 2939-63 1.1-bandiga asosan). Gaz hajmi gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitda, azot va karbonat angidrid) qiymatlari bo'yicha tuzatiladi.

Gaz miqdori "O'zstandart" agentligining me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq gaz miqdori standart sharoitga avtomatik ravishda keltiradigan gazni hisoblash priborlari yordamida aniqlanadi.

3.4. yetkazib beruvchining yoki iste'molchining balansida bo'lgan gaz o'lchash pribori va/ёки o'lchov kompleksi uning mulki hisoblanadi.

3.5. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/ёки o'lchov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi va yetkazib beruvchi bilan kelishiladi. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/ёки o'lchov iste'molini hisobga nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGHNAT-ASKUG) larga ulanishi lozim.

3.6. Gaz o'lchash priborlari va/ёки o'lchov kompleksini o'rnatish va ishlatish amaldagi qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.7. Gaz o'lchash priborlari va/ёки o'lchov kompleksi egasi uni ishlatish davomida o'z DSt 8.030:2008 "Yoqilg'i va energiya. Hisobga qo'yiladigan umumiy talablar", O'z DSt 8.031:2008 "Yoqilg'i va energiya. O'lchash priborlari bilan jixozlash va ularni ishlatish" davlat standartlari talablariga, shuningdek o'lchash priborlari ishlab chiqaruvchining talablariga rioya qilib.

3.8. Gaz o'lchash priborlari va/ёки o'lchov komplekslarining metrologik va texnik (avvalbaxtda amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

3.9. Gaz o'lchash priborlari va/ёки o'lchov komplekslari "O'zstandart" agentligining joriy qiyoslov ko'rigidan o'tkazilgan sertifikat va/ёки metrologik attestatsiyasiga ega bo'lishi kerak.

aniqlanganda, yetkazib beruvchi "O'zstandart" agentligi bo'linmalarida o'ltov komplekslari va gazni hisoblash priborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

Agar o'ltov komplekslari va hisoblash priborlari nosoz bo'lsa, ekspertizadan o'tkazilishi talab uchun to'lovlar iste'molchi tomonidan, soz holatida bo'lganda esa --ekspertiza o'tkazilishi talab qilgan taraf tomonidan amalga oshiriladi.

3.20. Agar hisobga olish pribori ishdan chiqqanda yoki hisobga olish priboridan gaz sizib chiqish holatlari aniqlangan taqdirda iste'molchi 24 soat ichida yetkazib beruvchiga bu haqda xabar berishi shart. Shuningdek korxonadagi gaz ishlatadigan asbob-uskunalarini ishlash grafiginii tuzishi va ishlamaydigan gaz asbob-uskunalarini yetkazib beruvchi bilan birgalikda o'chirib tamlalanishini ta'minlashi shart.

3.21. Hisobga olish priborlarida gaz sizib chiqish xolati aniqlangan taqdirda qayta hisob-kitoblar oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrda amalga oshiriladi. (Oz DS: 8.586 ga ko'ra gazni aniqlash tizimlari germetik holatda bo'lishi kerak).

IV. YETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN HISOB-KITOBNI AMALGA OSHIRISH

4.1. Iste'molchi mazkur shartnoma asosida yetkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2. Gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan muvofiq belgilanadi.

4.3. Iste'molchi hisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin yetkazib beruvchining hisob raqamiga ushbu shartnomaning 14 va 1.5- bandlarida ko'rsatilgan oylik gaz hajmi qiymatining 100 foiz summasini oldindan to'laydi.

Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davri ko'rsatib yetkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida yetkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqli.

Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotining hisob raqamiga tabiiy gaz yetkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymati summasining 50 foiz miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob hisobot o'yning oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz yetkazib berilmaydi.

4.5. Oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, iste'molchiga gaz yetkazib berilmaydi (strategik korxonalar va jumboiy ahamiyatga ega iste'molchilar bundan mustasno).

4.6. Iste'molchi har o'yning 10 sanasiga kadar avvalgi oyda iste'mol qilingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshirishi kerak.

4.7. Strategik va jumboiy ahamiyatga ega iste'molchilar hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8. Tabiiy gazdan foydalanishda iste'molchining aybi bilan tabiiy gaz yetkazib berishga shartnomada ko'rsatilganidan hajmdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisobga olinadi.

4.9. Iste'molchi tomonidan tabiiy gaz yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomala belgilanganidan ko'p hajmda va gaz ta'minoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz

baypas liniyalari ulanganda) oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

b) hisobga olish priborini ulash tartibi va sxemasi o'zgartirilganda oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

v) hisobga pribori buzilganda (hisobga pribori buzilganligini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lganda) - shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarini inobatga olgan xolda bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

g) hisobga olish pribori mavjud bo'lmaganda - qiyoslov ko'rigidan o'tkazish uchun yetchilganda - hisobga olish pribori yetchilgan kundan "O'zstandart" agentligidan qiyoslovdan o'tkazilib, sertifikat olinib joyiga o'rnatilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

d) hisobga olish priborini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va'yoki o'ltov kompleksini metrologik attestatsiyadan o'tkazish muddati tugaganda qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik attestatsiya attestatsiya o'tkazish muddati tugagan kundan qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik attestatsiya o'tkazish uchun yetchilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

e) hisobga olish pribori yoki o'ltov kompleksining qismlariga o'rnatilgan tamgalarning butligi buzilganda - oxirgi kurik yoki gaz ta'minoti taynikiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab, lekin bir hisob-kitob dari dan ko'p bo'lmagan vaqtga;

j) hisobga olish priborini o'zbohimchalik yechib qo'yilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

3) gazni tarkatish tarmoklarining texnologik rejimini buzadigan gaz quvurlarida yoki GTPlarida asbob-uskunalar o'rnatilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

i) Gaz hisoblash uskunasi konfiguratsiyalariga noqonuniy tarzda tashki ta'sir ko'rsatgan holda tabiiy gazni iste'mol qilish holatlari aniqlanganda- tashqi ta'sir ko'rsatilgan kundan boshlab (agar aralashuv kunini va faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa), biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga;

k) hisobga priborining xotirasida saqlanadigan arxiv ma'lumotlarini yo'qotish, gaz o'ltashni avtomatlashtirilgan tizimidan hisobot o'yida ma'lumotlar olish imkoni bo'lmaganda yoki yetkazib beruvchining operativ jurnallaridan olingan ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda (Hisob-kitob uchun TGHNAT (ASKUG) tizimi joriy qilingan iste'molchilarda hisobot davri uchun arxiv ma'lumotlari mavjud bo'lmagan hollarda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar TGHNAT qayd etilgan ma'lumotlardan olinadi;

l) gaz iste'moli hajmlari hisobga olish priborining ruxsat etilgan maksimal o'ltov chegarasidan ortiqcha bo'lganda, plomblanmagan gaz jihozlaridan foydalanilgan gaz uchun hisob-kitoblar oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo'lmaganda esa - gaz ta'minoti tashkiloti vakili tomonidan oxirgi marta borib ko'rilgan kundan amalga oshiriladi;

m) gazlashtirish xujjatlarini rasmiylashtirmasdan iste'molchi tomonidan qo'shimcha gaz qudrnashi o'rnatish holati aniqlanganda (qo'shimcha gaz anjomlarini o'rnatib olib foydalanuvchi fakti bo'yicha asoslantiruvchi hujjatlar mavjud bo'lganida) -bir hisob-kitob davriga;

3.18. Iste'molchining hisobga olish pribori gaz hajmini pasiki chegarasi ostida sarflaganda, gaz hajmi hisobga olish pribori va'yoki o'ltov kompleksining me'yoriy-texnik xujjatlarida ko'rsatilgan o'ltovning pasiki chegarasida olinadi.

3.19. yetkazib beruvchi tomonidan yetkazib beriladigan gaz hajmining ishonchiligiiga oltov ko'rsatuvchi o'ltov kompleksini hisoblash priborlarining ishlashi buzilgan holatlar

олинган тақдирда, Ўсте'молчилан шартномадagi hajmlardan oritkha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1.4 koefitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, belgilangan tartibda hisoblanib priborini almashtrish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, tekshirish va sozligini monitoring qilish uchun yettib olish, shuningdek, Ўste'molchiga aloqador bo'lmagan turli xil (elektr ta'minoti noso'zligi, chakmok, qiska tutashuv va x.k.)dagi texnik noso'zliklar aniqlanganligi sababli Ўste'mol qilingan tabiiy gaz hajmini o'rnatilgan gaz asbob uskunalarini t'fiki quvvati bo'yicha hisob-kitob qilinishi natijasida shartnomadagi hajmlardan oritq hajmlarni tashkil qilgan holatlar bundan mustasno.

4.10. Tabiiy gaz uchun Ўste'molchining qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avasas to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari Ўste'molchini xabardor qilgan holda karzki qoplashga yo'naltiriladi va avasas to'lovi sifatida hisobga olinmaydi. 4.1. Shartnomala ko'rsatib o'tilgan muddatlarda yetkazib berilgan gaz qiymati o'z vaqtida to'lanmaganda, Ўste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov summasining 50% foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12. Xisob-kitob oyida yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmi yetkazib beruvchi vakillar tomonidan tabiiy gaz Ўste'molini hisobga olish priboridan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGHNATga ulangan, shuningdek, tabiiy gazni Ўste'mol qilishni hisobga olish priborlariga ega bo'lmagan va belgilangan me'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan Ўste'molchilar bundan mustasno) asosida, keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar Fossa tizimiga kiritish, shuningdek, Ўste'molchilar tomonidan tabiiy gaz Ўste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini interaktiv xizmatlar vositalarida foydalanigan holda kiritish orqali aniqlanadi.

4.13. Shartnomaning 412-bandiga asosan ko'rsatkich olingandan so'ng keyingi o'ying 5-kuniga qadar yetkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz yetkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Rasmiylashtirilgan gaz yetkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan Ўste'molchiga elektron hisobvara-faktura yuboriladi.

4.14. yetkazib beruvchi va Ўste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblarning haqqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida gazni yetkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi Ўste'molchida quyidagi texnik hujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni hisoblash pribori hoirasidan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) Ўste'molchiga taqdim etiladigan, Ўste'molchining bo'linish chegarasigacha bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQlardagi texnologik yo'qotishlarning hajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi; Bunda Ўste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmoklari va GTQdagi texnologik yo'qotishlar Ўste'molchi hisobiga olib boriladi.

4.15. Ўste'molchi o'ying 7 kunidan kechiktirmasdan yetkazib beruvchidan xisob-kitob oyi uchun gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini qabul qilib oladi, imzolaydi va bir nusxasini yetkazib beruvchi ga jo'natadi.

Rasmiylashtirilgan gaz yetkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan elektron hisobvara-fakturani qabul qiladi.

4.16. Tabiiy gazni yetkazib berish-qabul dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni e'tirozlar bilan imzolash Ўste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomala norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilin oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'grda ma'lum qilib, so'ng dalolatnomaning bir nusxasini yetkazib beruvchi vakiliga taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro

hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17. Ўste'molchidan debitor karzlarni undirish yetkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18. Gaz uzib qo'yilganidan so'ng o'zboshimchalik bilan qayta ulanganda, Ўste'mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo'yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasi bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishtab turishi hisobidan aniqlanadi.

4.19. Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgaragan taqdirda, yetkazib beruvchi bu haqidagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgaraganida, mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi, Ўste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuchga kirganidan so'ng amalga oshiriladi. Bunda Ўste'molchi tabiiy gazning avasas tarixasida to'langan hajmi uchun to'lov kunidan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilinadi.

V. HUUQBUZARILIKLAR VA GAZDAN NOQONUNY FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Gazdan foydalanishda Ўste'molchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandda ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, yetkazib beruvchi va Ўste'molchi vakillari tomonidan imzolangan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq Ўste'molchidan, foydalanigan gaz hajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz xajmi qiymatining undirilishi Ўste'molchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA ULANISH TARTIBI

6.1. Ўste'molchida quyidagi holatlarning mavjudligi hamda ushbu xolatlarning bartaraf etilishiga qadar tarmoqlardan uzib qo'yiladi: shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda;

- yetkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunalarini va hisobga olish qurilmalarining nazoratidan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganda;

- foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;

- Shartnomada belgilangan buyurtmalarga yetarli miqdorda oldindan to'lovlar amalga oshirilmaganda;

- "Uznetgazinspeksiya"ning ko'rsatmalari yetkazib beruvchining va bajarilmaganda;

- xisoblash priborlariga qasddan zarar yetkazilganida, ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishtablashiga to'sqinlik kiluvchi xati-harakatlar amalga oshirilgan holatlarda;

- gazni hisobga olish priborlariga tashqi ta'sir ko'rsatishga xarakter kilish;

- gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoklariga noqonuniy ulanish yoki boshqa qoidabuzarliklar yohud gazni talon-taroj qilish holatlari aniqlangandi;

- bunda yetkazib beruvchi gaz ta'minotining o'chirilishi natijasida yetkazilgan moddiy zarar yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2. Tarmoqqa qayta ulanishda amaldagi qonunchilikka muvofiq Ўste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida haq undiriladi. Shartnomaning 13.1.-bandida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

6.3. Gaz iste'molini hisobga olish nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (gHNAT) lariga ulangan iste'molchilarni masofadan qayta ulash uchun haq undirilmaydi.

VII. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

7.1. yetkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o'ziga qarashli bo'lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o'z hisobidan ta'mirlash-tiklash;

- o'z gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish;

- tabiiy gaz yetkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'rida iste'molchilarni xabardor qilish;

- gaz hisoblash uskunalaridan olingan arxiv ma'lumotlarni, elektron ma'lumotlarning barcha parametrlarini kamida uch yil mobaynida o'zida saqlanishini ta'minlash;

- shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandlariga ko'rsatilgan holatlar sodir va ushbu holatlarni bartaraf etilguniga qadar tabiiy gaz ta'minotini qo'shimcha ogohlantirishsiz tarmokdan o'chirish;

- tabiiy gazning ruxsatsiz iste'mol qilinganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taroj qilinganligi to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

- iste'molchiga gaz yetkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni yetkazib berish;

- qonunda nazarda tutilgan tartibda monopoliyaga qarshi davlat organining takdimomasiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;

yetakzib beruvchi vakolatli davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

- texnik xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq iste'molchilarning ichki gaz tarmoklari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taftishidan o'tkazish va ularga profilaktika xizmat ko'rsatish;

- tabiiy gaz sizib chiqishida - darhol;

- ovqat tayyorlash uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida bir kun davomida;

isitish mavsumida isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

issiq suv va isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaktda) - ikki kun davomida;

- Gazdan foydalanish uskunalarini 5 sulka muddat ichida almashtirish; yetkazib beruvchi konunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. yetkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega: - texnik zaruraga ko'ra, iste'molchini belgilangan tartibda xabardor qilgan holda, tabiiy gazni yetkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;

- gaz ta'minoti tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish holatlari aniqlanganda

ularni belgilangan tartibda gaz tarmog'idan uzib qo'yish;

Iste'molchilardan tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini va gazni yetkazib berish shartnomasi talablariga rioya etishni talab qilish;

tabiiy gazni yetkazib berish shartnomasini ijro qilishdan qonun hujjatlarga muvofiq bir tomonlama voz kechish;

gaz tarmoqlarida avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralarini ko'rish zarurati yuzaga kelganda, iste'molchi bilan kelishmasdan va uni

ogohlantirmasdan hamda zudlik bilan xabardor qilgan holda, tabiiy gazni yetkazib berishni to'xtatish yoki cheklash;

ushbu shartnomada nazarda tutilgan xolatlarda, aniqlangan Qoidabuzarliklar bartaraf etilguniga qadar avvaldan ogohlantirmagan holda gaz yetkazib berishni to'xtatish.

- tabiiy gaz yetkazib berish shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.

7.3. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

- hisobot oyida tabiiy gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini va hisob-varaqaqini rasmiylashtirish uchun har oyning 5-sanasigacha yetkazib beruvchiga elektron gaz hisobdonini arxiv ma'lumotlari (raspechatka) yoki gazni hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini taqdim etish.

- gazdan oqilona va tejankorlik bilan foydalanish;

- gaz xo'jaligi gaz quvurlari va uskunalarini texnikjihtadan soz holatda saqlash;

- gaz tarmoklarida yoki gazdan foydalanish uskunasi vujudga kelgan tabiiy gaz sizib chiqishi holati haqida gaz ta'minoti tashkiloti dispetcherlik xizmatlarini zudlik bilan xabardor qilish;

- o'zining gaz tarmoqlari daxlsizligini ta'minlash va ehtimoli bo'lgan ruxsatsiz ulanishlarni aniklash maqsadida ularni va ulardagi uskunalarini muntazam ravishda ko'zdan kechirib chiqish;

- gaz ta'minoti tashkilotlari gaz tarmoqlariga sertifikatlangan, gazlashtirish loyihasiga (PTX) muvofiq bo'lmagan gazdan foydalanish uskunasi ulanishiga yo'l qo'ymaslik;

- gaz yetkazib beruvchi vakillari va "O'zmetgazspektsiya" xodimlarining (tegishli guvohnoma ko'rsatilgan taqdirda) tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlarini va/yoki gazdan foydalanish uskunasi kunning istalgan vaqtda erkin ko'zdan kechirishini ta'minlash;

- gazdan foydalanish uskunasi dagi nosozliklarni (bunday turdagi ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan brigadalar yoki xodim yordamida) bartaraf etish;

tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, ularning qasddan buzilishiga yo'l qo'ymaslik va o'rnatilgan tang'alarining butunligini ta'minlash;

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishidagi nosozlik aniqlangan taqdirda, gaz ta'minoti tashkilotini o'zi uchun qulay shaklda darhol xabardor qilish.

-Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasida tabiiy gaz sarfi bo'yicha ma'lumotlarni masofadan olish imkoniyatini beruvchi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan (TGHNAT-ASKUG) tizimiga ulangan hisoblash priborlari iste'molchi tomonidan o'rnatish..

7.4. Iste'molchi yetkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

yetakzib berilgan tabiiy gazning aniqlangan hajmiga va boshqa parametrlarga norozi bo'lgan taqdirda, yetkazib beruvchining tabiiy gazni iste'molini hisobga olish priborlari ishlashining ishonchilligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish;

tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda ko'zda tutilgan sifarda va yetkazib berish rejimiga rioya qilgan holda uzatilishi;

tabiiy gazni yetkazib berish shartnomasi bekor qilinganda, foydalanilmagan gaz hajmi uchun to'langan summani qaytarish;

- tabiiy gazni yetkazib berish shartnomasini qonun hujjatlarga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;

tabiiy gazni yetkazib berish to'xtatilganda, zararni qoplashni talab qilish (shartnomaning

2.5. va 6.1. bandlari bundan mustasno),

- газ yetkazib berishni vaqtincha to'xtatishni.

Iste'molchi konunchilik hujjatlari belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

VIII. TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

8.1. yetkazib beruvchi iste'molchiga gaz yetkazib berish shartnomasiga asosan gaz yetkazib berilmagan yoki to'liq yetkazib berilmaganligi oqibatida yetkazilgan moddiy zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

yetkazib beruvchi gazni yetkazib bermaganlik yoki to'liq yetkazib bermaganlik uchun quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

- Iste'molchi tomonidan gaz ta'minoti tarmoqlariga qo'shimcha gazdan foydalanish uskunasi ruxsatsiz ulash holati aniqlanganda;
- Foydalanilgan gaz uchun to'lov amalga oshirilmaganda;
- qonun hujjatlari nazarda tutilgan holatlarda;
- Iste'molchi tomonidan shartnoma talablariga amal qilmaganida;
- mazkur shartnomaning 2.5. va 6.1 bandlarida ko'rsatilgan hollarda.

8.2. yetkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi natijasida iste'molchiga moddiy zarar yetkazilganda, yetkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobaridan o'n besh baravari miqdorida jarima qo'llanadi.

8.3. Shartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam hajmda gaz yetkazib berilgan taqdirda, yetkazib beruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

- fors-majior holatlar;
- magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida avariya holatlari yuz berganda;
- qish davrida vaqtincha gaz yetkazib berish cheklanganida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz yetkazib berish tarmog'idan uzib qo'yilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalardan tashqari);
- shartnoma asosida iste'molchi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilmaganda.

8.4. yetkazib berilgan tabiiy gazning sifati shartnoma yoki normativ xujjatlarda talablariga mos kelmaganda, iste'molchi gaz qabul qilish yoki uning uchun haq to'lashni rad etganda yetkazib beruvchidan yetkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz hajmi qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'lashni talab qilish huquqiga ega. Agar, gaz qiymati to'langan bo'lsa, iste'molchi yetkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summani qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8.5. yetkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan kam gaz yetkazib berilganda, yetkazib beruvchi iste'molchiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan summasining 0,5 foizi miqdorida, biroq yetkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda yetkazib berilgan gaz xaqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tganto'lov

summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

IX. KORRUPTSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korruptsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalariga oid shartlarni va talablarni tadbiiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. "Iste'molchi" "yetkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarini ham o'z zimmasiga oladi:

Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, arentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlarini uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "yetkazib beruvchi"ning korruptsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha konun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Kelishmovchiliklar va vizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

10.2. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni hal etish uchun taraflar belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi tegishlisudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. Shartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

XI. FORS-MAJIOR HOLATLAR

11.1. Tomonlar:

- tabiiy ofatlar;
- magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida, gazni qayta ishlash korxonalari va gaz qazib chiqarish joylarida kutilmagan avariya vaziyatlari yuzaga kelganda, shuningdek yengib bo'lmay kuchlar tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar, xususlan, sel, yomg'ir, suv toshqini, yong'in chiqishi, yer qimirlashi, virus tarqalishi va pandemiya davrida hamda Hukumat qaroriga asosan taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkonini bo'lmay qolganda javobgarlikka jalb etilmasdan, gaz yetkazib berishni to'xtatish, qisqartirish yoki munosabtlarni to'xtatish huquqiga ega bo'lalilar.

11.2. Fors-majior holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.

11.3. Agar, ko'rsatilgan holatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa, tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomani kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

11.4. Fors-majior holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.


11.5. Agar, ko'rsatilgan holatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa, tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomani kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

11.6. Fors-majior holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.

12.1. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi hamda taraflar tomonidan imzolantishi kerak.

12.2. Byudjet tashkilotlari uchun shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralidagi PQ-594-son qaroriga asosan G'aznachilik bo'limi tomonidan majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.3. Shartnoma yil 31 dekabr gacha bo'lgan muddatga tuzilgan. Shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADEIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI ADEIYA BOSHQARMASI
KATTAQO'RG'ON TUMAN YURIDIK NIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

141-408, Kattaqo'rg'on tumani, Kadan mahallasi, Mustaqillik ko'chasi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'IRISIDA HUQUQIY
XULOSA**
№ SE87684541

1. Loyihaning turi.
Shartnoma.

2. Loyihaning nomi.

Kattaqo'rg'on tuman maktabgacha ta'lim bo'limi va «HUUDUGAZ
SAMARQAND gaz ta'minot filiali» o'rtasida Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga
yetkazib berish va qabul qilish to'g'irisidagi № 4-sonli shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.
Shartnoma loyihasi, Kattaqo'rg'on tuman maktabgacha ta'lim bo'limi
tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy xulosa berish uchun 2022 yil 17
yanvar kuni kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul
qilish maqsadga muvofiq.



Markaz boshlig'i

S.Mamarajabov

2022 yil 18 yanvar

Byudjet tashkilotlari uchun shartnoma bir yilga tuziladi, shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risidatalar bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Byudjetdan mablag' oluvchilar har yili " yil 31-dekabr sanasiga amal qilishlari lozim.

12.4. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha da'volari da'vo qabul qilingan kundan boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

XIII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

13.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 iyundagi "Tabiiy gaz va elektr energiyasini sotish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №. 6010-son Farmoni qabul qilinishi munosabati bilan Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga yetkazib berish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining (BYuRO) barcha vakolatlari 2020 yilning 1-avgustiga qadar amalda bo'ladi.

13.2. Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun ikki nusxada tuzilgan, ikkala nusxasiham bir hil yuridik kuchga ega.

XIV. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI:

"YETKAZIB BERUVCHI"	"ISTE'MOLCHI"
"HUUDUGAZ SAMARQAND" gaz ta'minoti filiali	Kattaqurg'on tuman MTB (byudjet tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nomi)
Manzil: Samarqand shahar Buyuk ipak yuli 15-uy	Manzil:M.ulug'bek mfy A.Navoiy kucha 5-uy
Tel./faks:	Tel:66-414-31-70 INN:207266845
Bank nomi: «O'zsanotqurilishbank rakat filiali	X/P:100022860182157091100251047 Bank nomi: Markaziy bank
MFO: 00435	
INN: 306605769	
OKED: 35220	
X/P:22634000405113969385	
	
Raxbar: A.O.Muxamadiev	Raxbar v.v.b.: M.Izattilayev